



YEVROPA, RUS VA O'ZBEK TILSHUNOSLIK AN'ANALARI QIYOSI

Komilova G.T.

*ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti
O'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada psixolingvistikaning Yevropa, rus va o'zbek tilshunoslik maktablaridagi shakllanish jarayoni, rivojlanish bosqichlari hamda tadqiqot obyektlari tahlil qilinadi. Maktablarning metodologik asoslari, yondashuvlari va muhim vakillari qiyosiy tahlil asosida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *psixolingvistika, nutq faoliyati, til va tafakkur, til o'rganish, kognitiv model, bilingvizm, psixosemantika*

Аннотация: *В данной статье анализируются процесс становления, этапы развития и объекты исследования психолингвистики в европейской, русской и узбекской лингвистических школах. Методологические основы, подходы и ключевые представители школ рассмотрены на основе сравнительного анализа.*

Abstract: *This article analyzes the formation, developmental stages, and research objects of psycholinguistics within the European, Russian, and Uzbek linguistic schools. The methodological foundations, approaches, and key representatives of these schools are examined through comparative analysis.*

Psixolingvistika zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, tilning inson ongida shakllanishi, qayta ishlanishi va qo'llanish jarayonlarini tadqiq etadi. Har bir tilshunoslik maktabi bu masalaga o'z falsafiy va metodologik asoslari asosida yondashadi. Yevropa, rus va o'zbek maktablari bu borada o'ziga xos ilmiy an'analarni shakllantirgan. Yevropa maktabi, asosan, *eksperimental psixologiya* va *kognitiv fanlar* bilan bog'liq. Til inson ongidagi axborotni qayta ishlash tizimi sifatida talqin qilinadi. Til o'rganish, nutq ishlab chiqarish, idrok va xotira jarayonlari asosiy tadqiqot obyektlaridir. Xususan, Yevropa tilshunoslik maktablarining yetakchi olimlari hisoblangan Noam Chomskiy zamonaviy tilshunoslikning yirik namoyandasi bo'lib, transformatsion-generativ grammatika nazariyasining asoschisi sifatida e'tirof etiladi. Ushbu nazariya tilni inson ongidagi tug'ma qobiliyat mahsuli sifatida talqin etib, tilning chuqur va yuzaki tuzilmalarini tahlil qilish orqali gap tuzilishini tushuntiradi. Uning qarashicha, **chuqur tuzilma** (mazmuniy asos), **transformatsiya** (qoidalar, o'zgarishlar), **yuzaki tuzilma** (grammatik shakl). Ya'ni, **chuqur tuzilma** – gapning asosiy mazmuni. **Transformatsiya** – grammatik o'zgarishlar (savol, inkor, passiv shakl va h.k.). **Yuzaki tuzilma** – gapning tashqi grammatik shakli degan g'oyani ilgari surgan va bu qarashni isbotlab bergan.

Stiven Pinker esa, Amerikalik psixolog, psixolingvist va kognitiv olim. U Chomskiyning generativ grammatika g'oyalarini davom ettirgan holda, ularni



evolyutsion psixologiya bilan bog'lagan. Pinker "The Language Instinct" (1994) asarida til inson uchun **biologik instinkt** ekanini isbotlashga harakat qiladi. Unga ko'ra, **til – insonning ongida genetik asoslangan tug'ma qobiliyat**, shuningdek, tabiat tomonidan berilgan "modul"dir. Bolalar tilni **o'rganmaydi, balki tabiiy ravishda egallaydi**, chunki miyada til uchun maxsus tizim mavjud. Bu qarash Chomskiyning "**universal grammatika**" g'oyasi bilan uzviy bog'liq. **Masalan**, bolalar, hatto, noto'g'ri gaplarni o'zlari tuzib ko'rsatadi: "*men keldim*", "*sen kelding*" → "*men kelding*" kabi. Bu ularning grammatik qoidani tug'ma ravishda qo'llashini ko'rsatadi.

Pinker inson ongini **evolyutsion rivojlanish mahsuli** sifatida ko'radi. Ongning ko'plab qobiliyatlari (mantiq, xotira, tildan foydalanish, qaror qabul qilish) **tabiiy tanlanish natijasida shakllangan**. U ongni "**modullarga bo'lingan tizim**" deb tasvirlaydi – ya'ni miyaning turli qobiliyatlari turli funksional bo'limlarida joylashgan. Til – ana shu modullardan biri bo'lib, insonning ijtimoiy hayotda omon qolishiga yordam bergan. Pinkerning asosiy qarashlarining asosini quyidagilar tashkil qiladi:

- 1) **Til - tug'ma qobiliyat**, ijtimoiy ta'sir bilan emas, biologik asos bilan yuzaga chiqadi.
- 2) **Ong va til ajralmas** – til ongning ishlash mexanizmlarini ochib beradi.
- 3) **Aqliy rivojlanish evolyutsion asosga ega** – til va tafakkur insoniyatning moslashuvchanlik vositasi sifatida shakllangan.
- 4) **Tilning instinktiv tabiati** – til inson uchun yurak urishi yoki nafas olish kabi tabiiy jarayon sifatida qaraladi.

Yana bir Amerikalik psixolingvist va kognitiv olim Brian Makvinneydir. U ko'proq **tilni o'rganish jarayonlari** va **til bilan bog'liq kognitiv modellar** ustida ishlagan. Eng mashhur nazariyasi – **Raqobat modeli (Competition Model)**. Ushbu modelni Brian Makvinney va Elizabet Bates 1980-yillarda ishlab chiqqan.

Modelga ko'ra, **inson tilni o'rganishda turli til birliklari va grammatik vositalar o'rtasidagi raqobat orqali** to'g'ri shaklni tanlaydi. Tilni tushunish va ishlab chiqarishda **grammatika, semantika, pragmatika va kontekst belgilarining og'irligi** muhim rol o'ynaydi. Bolalar tilni o'rganayotganda turli belgilarni kuzatib, ularning qaysi biri muhimroq ekanini "**raqobat**" orqali o'zlashtiradi. Ya'ni, uning fikricha, tilni o'rganish – **signallar raqobati**: bola yoki o'rganuvchi nutqda qaysi grammatik yoki semantik belgi asosiylikini farqlaydi. **Belgilarning og'irligi**: turli tillarda turli belgilar kuchliroq bo'ladi. Masalan, ingliz tilida **so'z tartibi** muhim, rus tilida esa **fe'l qo'shimchalari**. **Interaktivlik**: tilni tushunishda bir vaqtning o'zida ko'p belgilar ishlaydi. **O'zlashtirish jarayoni**: raqobat natijasida o'rganuvchi eng samarali belgilarni tanlab, til tizimini egallaydi.

Rus tilshunosligida L.S. Vygotskiyning qarashlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, u tildagi **ichki nutq** tushunchasini ilm-fanga olib kirgan. Bu nazariyaga ko'ra, **ichki nutq** – insonning o'z-o'zi bilan "jim" muloqoti, tafakkur jarayonida tilning ichki shaklda ishlashi. Tashqi nutq (ovozli) asta-sekin ichki nutqqa aylanadi. Bolalarda dastlab **tashqi nutq** ustun bo'ladi, keyinchalik u **egotsentrik nutq** (o'z-o'zi bilan gaplashish)



ko'rinishida shakllanadi va oxirida **ichki nutq**ga aylanadi. Ichki nutqning grammatikasi tashqi nutqdan farq qiladi: u qisqa, ixcham va ko'proq mazmunga yo'naltirilgan bo'ladi.

Vygotskiyga ko'ra, tafakkur va nutq dastlab mustaqil rivojlanadi. Bola ma'lum yoshga kelgach, ular **kesishadi va birlashadi**. Shundan so'ng tafakkur nutqsiz, nutq esa tafakkursiz mavjud bo'la olmaydi. Nutq tafakkurni tashqi shaklda ifodalaydi, tafakkur esa nutq orqali ongda tashkil topadi.

Ichki nutq – tafakkurning vositasi: inson o'z fikrlarini ichki nutq orqali shakllantiradi va tartiblaydi. **Tashqi nutq → ichki nutq**: rivojlanish jarayonida tashqi muloqot ichki tafakkur jarayoniga aylanadi. **Nutq tafakkurni o'zgartiradi**: til insonning kognitiv faoliyatini tashkil qiladi. **Madaniy vositalar** (til, yozuv, belgilash tizimlari) ong va tafakkurni rivojlantiradi. Masalan, bola murakkab masalani yechayotganda dastlab ovoz chiqarib o'ylaydi: *“avval buni qo'shaman, keyin shuni ayiraman...”*. Vaqt o'tishi bilan bu ichki nutqqa aylanadi va bola jim o'ylab, natijani topadi.

A.A. Leontyev psixolingvistikaning shakllanishida muhim rol o'ynagan olimlardan hisoblanadi. U **nutq faoliyati nazariyasini** ishlab chiqqan va nutq faoliyatining **psixologik bosqichlarini** ajratib bergan. A.A. Leontyev bosqichlarni quyidagicha taqsimlaydi:

Motiv → Maqsad → Ichki nutq (reja) → Tashqi nutq → Ijro → Nazorat

1. Motiv bosqichi - Nutq faoliyati har doim **maqsad** va **motiv**ga asoslanadi. Inson gapirishga ichki ehtiyoj sezadi (masalan, axborot berish, fikrini ifodalash, ta'sir ko'rsatish).

2. Maqsad qo'yish bosqichi. So'zlovchi o'z oldiga aloqa maqsadini qo'yadi. Masalan: “Xabar berishmi?”, “O'rgatishmi?”, “So'rashmi?”

3. Ichki rejalashtirish (ichki nutq) bosqichi. So'zlovchi o'z fikrini avval ichki nutqda shakllantiradi. Bu bosqichda asosiy mazmun aniqlanadi, qanday so'z va iboralar ishlatilishi belgilanadi.

4. Tashqi nutqqa aylantirish bosqichi. Ichki reja **tashqi nutqqa** o'tadi: fonetik, leksik va grammatik vositalar tanlanadi. Gap tuziladi, talaffuz yoki yozuv shakliga keltiriladi.

5. Ijro bosqichi (artikulyatsiya). Nutq tovush orqali (og'zaki) yoki yozuv orqali (yozma) amalga oshiriladi.

6. Nazorat bosqichi. Kishi o'z nutqini tinglaydi, xatolarni tuzatadi, kerak bo'lsa o'zgartirishlar kiritadi.

A.A. Leontyevning qarashlariga ko'ra, nutq — bu oddiygina til vositalaridan foydalanish emas, balki insonning ongli faoliyatidir. Har bir nutqiy jarayon motiv va maqsadga asoslanadi, ichki nutq orqali rejalashtiriladi, tashqi nutqda amalga oshadi va doimiy nazorat qilinadi. Demak, nutq faoliyati — psixologik jihatdan murakkab, bosqichma-bosqich kechadigan jarayon bo'lib, u tafakkur va muloqotning ajralmas qismi hisoblanadi.



A.R. Luriya mashhur rus psixologi va neyropsixologiya asoschilaridan biri. U miya faoliyati va psixik jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan. Luriya bemorlarning miya jarohatlaridan keyingi nutq, xotira, tafakkur kabi psixik funksiyalarini tahlil qilgan. Uning uslubi "lokalizatsiya va dinamik tizim" yondashuviga asoslangan: har bir psixik jarayon (masalan, nutq) miya faqat bitta qismiga bog'liq emas. Aksincha, u bir necha miya sohalarining birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshadi. Luriya A.N. Leontyev va Vygotskiy g'oyalarini davom ettirib, psixik faoliyatni funktsional tizimlar sifatida tushuntiradi. Masalan, nutqni amalga oshirish uchun: *eshitish zonalari* (nutqni idrok qilish), broka markazi (nutq ishlab chiqish), yozuv va motor sohalar (artikulyatsiya) birgalikda ishlaydi.

Yevropa psixolingvistikasidan farqli o'laroq, O'zbek psixolingvistikasida esa, milliy tafakkur, mentalitet va til o'rganish jarayonlari asosiy o'rinda turadi. Bugungi kunda psixosemantik tahlil, bilingvizm va terminologiya yaratishdagi psixologik asoslar bo'yicha tadqiqotlar kengaymoqda. O'zbek tilshunosligida ham bir qancha tadqiqotlar olib borilmoqda. Shulardan Sh. Usmonova, Uning psixolingvistika asari o'zbek tilshunosligi va psixologiyasini bog'lab, til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro aloqani ilmiy asosda yoritadi. U nutq faoliyatini idrok qilish, anglash, ishlab chiqish va ifodalash jarayonlarini bosqichma-bosqich tahlil qiladi. Eng ahamiyatli jihati shundaki, bu darslik psixolingvistika fani bo'yicha birinchi asosiy qo'llanmalardan bo'lib, til o'rganish, nutq psixologiyasi va tafakkurni shakllantirish mexanizmlarini tushunishga zamin yaratadi.

Bundan tashqari S. Mamarasulov — Milliy tafakkur va semantika bog'liqligini milliy tafakkurni til birliklarining ma'no tizimi (semantika) bilan chambarchas bog'liq ekanini ilmiy asoslab bergan. Unga ko'ra, tilning semantik qatlami faqat aloqa vositasi emas, balki xalqning dunyoqarashi, qadriyatlar va milliy tafakkurini ifoda etuvchi tizimdir. Bu qarashlar milliy tilni faqat kommunikativ vosita sifatida emas, balki madaniyat va mentalitetni tashuvchi fenomen sifatida ko'rish imkonini beradi. M. Jo'rayev — So'z yodlash mexanizmlari tadqiqotlari inson xotirasida so'zlarni eslab qolish va qayta tiklash jarayonlari qanday ishlashini o'rganishga qaratilgan. U yodlash mexanizmlarida fonetik shakl, semantik mazmun va assotsiativ bog'lanishlarning ahamiyatini ko'rsatadi. Til o'rganishda samarali yodlash usullarini ishlab chiqishda, ayniqsa chet tillarni o'rganishda qo'l keladigan psixolingvistik nazariy asos beradi.

Yevropa, rus va o'zbek tilshunoslik maktablari psixolingvistik tadqiqotlarda har xil metodologiyalardan foydalansalar-da, ularning umumiy maqsadi til va tafakkur munosabatini ochib berishdir. Yevropa maktabi kognitiv va eksperimental metodlarga tayansa, rus maktabi psixologik-falsafiy asoslarga, o'zbek maktabi esa milliy tafakkur va til o'ziga xosligiga urg'u beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Chomsky N. *Aspects of the Theory of Syntax*. MIT Press. (1965).



2. Vygotskiy L.S. *Myshlenie i rech.* (1934).
3. Usmonova Sh. *Psixolingvistika: Darslik.* Toshkent: TDPU. (2018).
4. Pinker S. *The Language Instinct.* William Morrow. (1994).
5. Leontyev A.A. *Osnovy psixolingvistiki.* (1997).
6. Mamarasulov S. "Psixosemantik tahlilda milliy tafakkur".(2019).
7. Levelt W. *Speaking: From Intention to Articulation.* MIT Press. (1989).
8. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили.Т. 2006.
9. Реформацкий А.А. Введение в языкознание. 4-е изд.-М.: 1967.
10. Сахарный Л.С. Введение в психоллингвистику. Л.,1989.
11. Слобин Д., Грин Дж. Психоллингвистика. М.,1976.
12. Тилшуносликка кириш. Маърузалар матни. –Т.: Университет, 2000.
13. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., "Ўқитувчи", 1992.
14. Худайберганаева Г. "Экспериментал психология" Нукус 2012.
15. Шахнарович А.М., Юрьева Н.М.Психоллингвистический анализ семантики и грамматики. М.,1991.
16. Шендельс Е.И. Связь языкознания с другими науками. М.:1962.
17. Якушин Б.В. Гепотизы о происхождении языка. М.: 1984.